



EVFEMIZM VA DISFEMIZM MAVZUSIDAGI IZLANISHLAR BORASIDAGI AYRIM NUQTAI NAZARLAR

Kadirova Xurshida Batirovna,
filologiya fanlari doktori, dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243765>

***Annotatsiya.** Maqolada evfemizm va disfemizm borasidagi tadqiqotlar mavzusini to‘g‘ri tanlash muammosi, ilmiy izlanishlardagi subyektiv yondashuvlar masalasi tahlil qilingan bo‘lib, xulosalarning izdan chiqishiga olib keluvchi 5 xil xatoliklar tasniflangan. Bunda jahon tajribasi va milliy manbalarga havola berilib, izlanuvchilarning turli yanglishmovchiliklarga asos bo‘luvchi dalillar keltiriladi. Maqolaning maqsadi – evfemizm va disfemizmga oid masalalarning adekvat yechimini topishga qaratilgan tadqiqotlar samaradorligiga erishish; nazariy, madaniy, chog‘ishtirma, tipologik tadqiqotlarda tilshunoslik rivoji uchun hissa qo‘shadigan mukammal ishlar salmog‘ini oshirish hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** evfemizm, disfemizm, ilmiy tadqiqot, adekvat yondashuv.*

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar masalasi keng qamrovda o‘rganilishi avj olib, tilning ekspressiv tabiati ilmiy asoslanmoqda. Bu jarayon Yevropa tilshunosligida ancha avvalroq boshlangan. Shuning uchun, bu hodisalarning mezonlari, yondosh hodisalari, o‘rganilish maydoni ularda ancha taraqqiy etgan. Mazkur jarayon keyingi tadqiqotchilar uchun, g‘oyalar, yangiliklar, bir mavzudan yangi mavzular undirish uchun zo‘r manba sifatida qadrlidir. Ammo ulardan andoza olib, ayni mavzuni shunchaki o‘zbekchasini “taxlab” qo‘ymaslik ham muhim. Zero, tadqiqot o‘z nomi bilan muammo, yechim va natijalarga ega bo‘lishi kerak.

Tadqiqot ishlarning ayrimlarida mavzu noto‘g‘ri tanlangani oqibatida xato xulosa shakllanib qolishi uchraydi. Ish jarayonida keltirilgan iqtiboslardan ma‘lum bo‘ladiki, mazkur noto‘g‘ri shakllantirilgan mavzuni monografik planda o‘rganishning o‘zi mantiqsizlik – unda muammo kuzatilmaydi. Masalan, sohaga oid matnlarda evfemizm va disfemizmlarning ifodalanish masalasi mazkur ifodalarning sanab o‘tish darajasida ekanligini ta‘kidlash joiz. Yevropa tilshunosligida bu mavzuda bakalavr va magistrlik ishlari uchraydi. Misol uchun “Эвфемизмы и дисфемизмы в политико-публицистическом дискурсе (на материале англоязычных и русскоязычных статей, посвящённых коронавирусу)” [14] yoki “Функции и семантика эвфемизмов и дисфемизмов в женских и мужских иллюстрированных журналах” [4], yana “Особенности использования эвфемизмов в текстах СМИ” [8] singari. Tarjimashunoslik borasida ham yuqori saviyadagi mana shunday bakalavr va magistrlik ishlarini uchratish mumkin. Masalan, Misrning Ayn-SHams universiteti, Al-Alsun fakulteti, slavyan tillari kafedrasida



arab va rus tillaridagi evfemik va disfemik birliklar tarjimai [9], Rossiyadagi yevroosiyo lingvistika instituti filiali Moskva davlat lingvistika universiteti, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya kafedrasida rus va ingliz tillarining tibbiyotga oid evfemik birliklar tarjimai [12], K.D.Ushinskiy nomidagi Yaroslavl davlat pedagogika universitetining Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida reklama matnidagi mazkur birliklar tarjimai [3] masalalari yosh tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi, mavzuning dolzarb, qiziqarli va doimo yangi ekanligidan dalolat beradi. Ko‘rib turganimizdek bu mavzulardan bakalavr ishi yoki yaxshi maqola chiqarish mumkin. O‘zbek tilshunosligida esa PhD darajasida o‘rganilishi “tadqiqot”ni izdan chiqarishi, tilshunoslikning kemtik joyini to‘ldirmasligi muqarrar. Bu xatolarning ayrimlarini sanab o‘tamiz.

I. Mavzular o‘rganilayotgan hodisalarning “ifodalanishi”, “aks etishi”, “qo‘llanilishi” kabi hukmlar bilan emas, muayyan muammoning yechiga aloqador so‘zlar bilan shakllantirilishi kerak. Boblarda ham uning mohiyatini aks ettiruvchi paragraflar aks etishi lozim. Misol uchun, “iqtisodiy-moliyaviy matnlarda insonning jismoniy, ijtimoiy nuqsonlarini bildiruvchi evfemik birliklarning maqsad va vazifalari; “publitsistik matnlardagi sarlavhada uchraydigan evfemik birliklarning psixolingvistik xususiyatlari; “tibbiy matnlarda tuzilishiga ko‘ra – leksik, frazeologik, grammatik shakldagi evfemik birliklarning dinamikasi” va h. Bunda hech bo‘lmaganda – a) statistik oyna hosil bo‘ladi; v) o‘zbek tilshunosligining mazkur mavzuiy guruhini ilmiy asoslaydi; s) jahon tilshunosligidagi ilmiy savodxonlikka mos ish amalga oshadi va hokazo.

II. Ayrim tadqiqotchilar “evfemiklash”, “evfemizmlash”, “evfemalash” terminlardan noto‘g‘ri foydalanib, qorishtirib yuborishi kuzatiladi. Bu terminlarni duch kelgan o‘rinda qo‘llayverish noo‘rin, qolaversa ulardagi morfologik ko‘rsatkichlarning o‘z grammatik ma‘nosi bor:

Evfema	Muayyan tushunchaning nutqiy vaziyatga ijobiy tus beruvchi boshqa birlikning holati
Evfemik	Ijobiy tus beruvchi ko‘chimga nisbatan qo‘llaniladigan sifatlovchi aniqlovchi: <i>evfemik so‘z, evfemik hodisa, evfemik vaziyat, evfemik birlik</i> kabi.
Evfemik birlik	<i>ayn. evfemizm.</i> Evfemik xususiyatga ega har qanday yozuvda aks etgan birlik: leksik ko‘chim, ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘z, so‘z birikmasi, ibora, gap kabi
Evfemizim	<i>ayn. evfemik birlik.</i> Qo‘pol, noo‘rin yoki odobsiz so‘zlarni almashtiradigan neytral so‘z yoki ibora.
Evfemalashtirish	Evfemik vaziyat hosil qiluvchi muayyan birlikni matn qurshovida faollashtirish jarayoni.
Evfemiya	Nutqdagi evfemik vaziyat; evfemik jarayon.

III. Tadqiqotchilar evfemizmlarni ko‘pincha assotsiatsiv ravishda frazeologik birliklar bilan bog‘lab talqin etishi ham tez-tez uchraydi. Shuning barobarida ularning na leksik va na grammatik shakllarini inobatga oladi. Vaholangki, ular nafaqat ibora,



balki so‘z, so‘z birikmasi, gap, hatto grammatik ko‘rsatkichlar (masalan, *-gina*), va hatto, implitsit [6] ko‘rinishda namoyon bo‘lish xususiyatiga ega. Bu haqda olimlarning salmoqli maqolalarini ijtimoiy tarmoqlarda uchratish mumkin. Frazologik birlikning badiiy uslubga xos stiliktik priyom sifatidagi vazifasi mavjud bo‘lib, uni boshqa soha, xususan, tibbiyot sohasi, iqtisodiyot, publitsiatikadagi evfemik tabiati ham nisbatan badiiylikka xosroq. Ko‘pincha frazeologik evfemik birliklarning tabiatini ochish uchun badiiy matndan misollar keltiriladi. Uning estetik vazifasi publitsistik vazifasidan farq qilmaydi. Bundan yangilik olish, biror muammoga yechim topish qiyin. Misol uchun “qo‘lga olmoq”, “belidan quvvat, ko‘zidan nur ketganda” iboralari sohaga oid emas.

VI. Aksariyat tadqiqotchilarning evfemik birlik bo‘lishi uchun uning ziddi hisoblangan disfemik ifodasi ham bo‘lishi kerak degan qat’iy xulosasi mavjud. Evfemizmning disfemizmga zid ekanligi uning maqsadiga ko‘ra. Disfemizmning mavzuviy guruhi ham ancha kam, ikki hodisaning ayrim mavzulardagi muqobillari yo‘q. Shu o‘rinda aytish kerakki, tasniflarning eng salmoqlisi mavzuiy, xususan evfemizmlarning mavzuiy tasnifidir. Bu borada R.Xolder [1] tomonidan qilingan tasnif e‘tiborga molik. U evfemizmlarni leksik-semantik jihatdan 60 ta kichik sinfga ajratadi. Bu tasnif evfemizmlarning denotativ mazmuni xilma-xilligidan dalolat beradi.

A.M.Katsev evfemizmlarni 10 ta mavzuga ajratadi: 1) ilohiy kuchlar nomi; 2) o‘lim va kasallikni anglatuvchi birliklar; 3) nuqson bilan bog‘liq nomlar; 4) jins bilan bog‘liq nomlar; 5) kambag‘allikni anglatuvchi nomlar; 6) ayrim kasblarni anglatuvchi nomlar; 7) aqliy va jismoniy nuqson nomlari; 8) kiyim qismlari nomlari [7].

O‘zbek tilida esa mavzuiy guruhlariga ajratilgan ifodalar tasnifi A.Omonturdiyev tomonidan bajarilgan ilmiy ishda o‘z aksini topadi [11]: oila qurish bilan bog‘liq evfemik vositalar; axloqsizlik bilan bog‘liq evfemik vositalar; intim munosabat bilan bog‘liq evfemik vositalar; murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar; inson a‘zolari va ular bilan bog‘liq kiyim nomlari evfemizmi; jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liq evfemik vositalar; ovqatlanish va uning hazmi bilan bog‘liq evfemik vositalar; insonning salbiy faoliyati bilan bog‘liq evfemik vositalar; ayrim odat-an‘ana bilan bog‘liq evfemik vositalar; qarilik tushunchasi bilan bog‘liq evfemik vositalar; o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalar. Jami 11 ta. Bularning disfemik varianti yo‘q. Disfemizmlarning tasnifi tilshunoslik bo‘yicha ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida disfemizm leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi: 1) o‘lim, kasallik, jismoniy va ma‘naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar; 2) keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog‘liq disfemizmlar; 3) inson nuqsonlari



bilan bog‘liq disfemizmlar; 4) millatga mansub disfemik nomlar; 5) xudo, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog‘liq disfemizmlar [13].

Ko‘rinib turganidek ularning evfemizmlardan ko‘ra qo‘llanilish doirasi, vazifasi farqli. O‘zbek tilida esa evfemik ma‘noli birliklarga nisbatan disfemik ma‘noli birliklar kam ekanligi ma‘lum va shu jihatdan uning mavzuiy guruhlari doirasi ham asosan so‘kish, haqorat, qarg‘ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi vositalar bilan chegaralandi [5].

Izlanuvchilardagi bunday xulosa chuqur tahlil qilinmagan holda yuzaga kelganligiga shubha yo‘q. Tadqiqotlarda evfemik va disfemik birliklarning qiyosiy tahlilga tortilgan misollarning kamligi, ularning statistik diagrammasi yo‘qligi, izlanuvchilarning mavjud lug‘at-ko‘rsatkichlardan bexabarligi bunga sabab bo‘la oladi.

V. Disfemizmlarning o‘zbek tilida evfemizmlardan salmog‘i kamligini milliy-madaniy meyorlarga bog‘lash kerak. Biroq yosh tadqiqotchilarning zamonaviy qarashlarida glaballashuv jarayonida sharqona tarbiya, qadriyat, izzat, hurmat, takalluf, insoniylik kabi xislatlarning xira tortganligi sababli disfemizmlardan foydalanish, ularni tadqiq etish, ilmiy asoslash kerak degan nuqtai nazarlari mavjud. Bunga dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlar tabiiy ehtiyoj paydo qilayotganligini iddao qilib, “Achchiqning zahrini achchiq kesadi” qabilida harakatlanish karakligini taklif etgan tadqiqotchilar ham yo‘q emas. Unda mental xususiyat qayerda qoladi, degan savol tug‘iladi. Har bir tilning o‘z tipologiyasi bor. Nemis yoki ingliz tili uchun meyor hisoblangan tushunchalar o‘zbek tili uchun xos emas. O‘zbek tilida disfemizmlar inektiva bilan ifodalanadi. Insonga xos nuqsonlar, ayblar, xatolar, nafaqat madaniy, balki insoniylik nuqtai nazaridan evfemalashtirilgani o‘zbek tilining xarakter xususiyati hisoblanadi. O‘zbek tilida siyosiy xolislik – politkorrektlik ustunlik qiladi. Boshqa millat tili va madaniy normalariga zid so‘z qo‘llanmaydi, kishining qalbiga ozor bermaslik tabiati mavjud. Buni qator omillar bilan bog‘lash mumkin. Sharq madaniyatida islomgacha bo‘lgan manbalar, islomdan keyingi manbalar: tarbiyaviy, ta‘limiy, axloqiy, ilmiy-amaliy kitoblar kelajak avlodga so‘zni qayerda, qanday qo‘llash metodologiyasi haqida so‘zlaydi va buning natijasi o‘laroq ularning jahondagi o‘rni va mavqei hammaga ma‘lum. Shunday ekan, bu masala o‘zbek tilshunosligida yana ancha ochiq qolishi ehtimoli bor.

Xullas, A.Omonturdiyev aytganidek “evfemiologiyani ilmiynazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha – tilshunoslikdan o‘sib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darslik, lug‘at tuzish kabi” [10] muammolar kun tartibidagi masala bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunda jahon tajribasidan andoza olish mumkin. Misol uchun,



Y.P.Senichkinaning rus tili evfemizmlariga bag‘ishlangan maxsus kursi bo‘lib, unda o‘rganilayotgan mavzuga oid barcha bilimlar mujassamlashgan va eng e‘tiborlisi u u nafaqat asosli, obyektiv bo‘lib, hamma uchun ochiq elektron shaklda, shuningdek muntazzam yangilanib boradi. O‘zbek tilshunosligida shu kabi kurs uchun yetarli ilmiy asos va ba‘zani shakllantirishimiz, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiradigan saviyali ilmiy izlanishlarni ko‘paytirishimiz, o‘zbek tilining o‘ziga xos evfemik va disfemik birliklarning sohaga, uslubga, ijtimoiy qatlamga oid tipologiyasini aniqlashimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Holder R.W. Dictionare of Euphemisms. — Oxford, 1995.
2. Qodirova, X. 2022. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm [Matn]: uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Bookmany print, URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/kitob_kad.pdf
3. Вишневская П.Р. Передача эвфемистической лексики при переводе рекламных текстов с английского на русский язык. Курс.раб. – Ярославль, 2017. – 48 б.
4. Инета Духовная. 2013. Функции и семантика эвфемизмов и дисфемизмов в женских и мужских иллюстрированных журналах: Магистерская работа. Тарту, 62 ст.
5. Кадилова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати. 10.02.01 – Ўзбек тили. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2012. ДОИ: [10.13140/PT.2.22449.94561](https://doi.org/10.13140/PT.2.22449.94561)
6. Кадилова, Х.Б. 2023. Имплицитное выражение эвфемических и дисфемических явлений в узбекском художественном тексте // Proceedings of the XXXI International Multidisciplinary Conference «Innovations and Tendencies of State-of-Art Science». Mijnbestseller Nederland, Rotterdam, Nederland. DOI:10.32743/NetherlandsConf.2023.5.31.357218 URL: <https://www.internauka.org/conf/netherlands/31/357218>; <https://elibrary.ru/item.asp?id=54035766>; https://tsuull.uz/sites/default/files/moy_0.pdf
7. Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.: Наука, 1977.
8. Михайлова А.А. 2016. Особенности использования эвфемизмов в текстах СМИ (на материале интернет-изданий качественной прессы США). Курсовая работа. Благовещенск, 100 ст.
9. Мухаммед Хассен Саммани Мансур. Эвфемизмы в современном русском языке и способы их перевода на арабский язык. Дисс.маг.филол.наук. – Каир, 2015. – 255 с.
10. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (Чорвадорлар нутки мисолида): Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Т., 2009.
11. Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дисс. — Т., 1997. – Б. 176.
12. Петунина Ю.Е. Способы перевода эвфемизмов в медицинском дискурсе. Квалиф.раб. – Иркутск: ФГБОУ ВПО "ИГЛУ", 2016. – 52 с.
13. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф... канд. филол. наук. — Санкт-Петербург, 2008. – С. 20.
14. Файзуллова Марина Рашитовна. 2020. Эвфемизмы и дисфемизмы в политико-публицистическом дискурсе (на материале англоязычных и русскоязычных статей, посвящённых коронавирусу): Выпускная квалификационная работа. Екатеринбург, 109 ст.